

**MEDIA TA'LIM****O'rozov Faxriddin Isoqovich**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

**Isoqova Muxlisa Faxriddin Qizi**

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

**Fayzullayev Sayfiddin Baxodir O'g'Li**

Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7367734>

**ANNOTATSIYA:** Bu maqolada media so'ziga ta'rif mediata'larning asosiy maqsadlari.Mediata'larning afzalliklari,muammo va kamchiliklari haqida gapirilgan.Media ta'limga to'g'risida qabul qilingan qaror va farmonlar va ularning mohiyati. Mediasavodxonlik, multimedia, mediamaniyat haqida alohida to'xtalingan

**Kalit so'zlar :** Media, media ta'limga, mediasavodxonlik, mediamadaniyat, multimedia, axborot voitalari, mobil telefonlar, ommaviy axborot vositalari .

Avvalo media so'zining ma'nosi nima ekanligiga to'xtalamiz.Media(ing.so'z bo'lib ommaviy axborot vositalari)degan ma'noni anglatadi.Media deyilganda aloqa vositalari, ommaviy axborot vositalari tushuniladi.Ya'ni ma'lumotlarni yetqizish uchun ishlataladigan vositalar.Bu o'ziga ko'p sohani qamrab oladi.Elektron aloqa,reklama vositalari,raqamlı axborot vositalari,gipermedia,intraktiv media,multimedia,bosma ommaviy axborot vositalari,yozuvchi vositalar,ijtimoiy media,ijodiy asarlarni yaratishda foydalanilaniladigan badiiy vositalar va hokozolar kiradi.Medianing turlari juda ko'p lekin ularni hammasi bitta maqsadda ishlatalinadi.Axborot almashish,axborot yetqizish kabi.

Media ta'limga talabalar ommaviy kommunikatsiyani o'rganishga qaratiladi.Media ta'larning asosiy maqsadi – o'sib kelayotgan yosh avlodni zamonaviy axborot muhitida ta'limga tarbiya berish,zamonaviy axborot vositalarini yaxshi tushunish,ularni anglash,har xil axborot ma'lumotlarni miyasida idrok etish,o'zlashtirishdir.Ta'limga tizimida media tushunchasini kirib kelishi juda quvonarli. Nega deganda ta'limga tarbiya olayotgan har bir shaxs o'quv jarayonini yaxshi



tushunishi,oldiga qo'ygan maqsadlariga oson erishishi,fikr mulohaza yuritishi bilan ustun turadi. Ta'lim jarayonini ham shu texnologiyalardan chiqqan holda zamonaviy muhitda dars jarayonini proyektor,katta ekranli televizor va shunga o'xhash vositalar yordamida axborot yetqazadigan vositalarni ko'paytirib,dars jarayonida foydalansa albatta o'zini samarasini beradi.Boshqa chet davlatlar mediata'lism orqali ta'lim sohasida katta-katta yutuqlarga erishib,o'z o'rniga ega bo'lib,ta'lim sohasida yetakchilikni qo'lga oldi. Bunday natijaga erishish uchun ochiq ta'lim texnologiyalari,yangi sifatli ta'limga ta'limni axborotlashtirish,o'qitish,yetqazish usullarini modernizatsiya qilish zarur. Media ta'lim orqali chet davlatlar ta'lim muhitini yaratish misol uchun dunyodagi eng yaxshi dars namunalari,mavzuni tushuntirish jarayonlari yoki axborotni o'quvchiga yetqazishning eng zo'r usullarini,tayyor darslarni o'rganish mumkin. Bu har bir odam o'zini qiziqqan kasbini yoki bilimlarini ommaviy axborot vositalari,internetdan o'rganish imkonini beradi. Media ta'lim ta'limni rivojlantirishni samarali usullaridan biridir.



Media ta'limning asosiy maqsadlari quyidagilar: o'quv jarayonida o'tilayotgan darslardan tashqari qabul qilinadigan axborot kiritish,olgan axborot bilimga aylantirish. Media muhitida olib borilayotgan darslarni fikr yuritib,munozaralar bilan yaxshi tushunish olgan axborotni keng qo'llay bilish,olgan ma'lumotlarini to'g'ri yo'naltirish,mustaqliz shaxsiy yashirin fikrlarini bayon qilib bu yuzasidan munozaralar o'tqazish,axborotlarni turli narsalardan qabul qilishni o'rganish (Televideniya,kompyuter va hokzo). Qabul qilgan axborot qanchalik darajada to'g'ri



qay darajada noto'g'rilagini tahlil qila bilish. Qabul qilayotgan axborot ichida eng muhim va kerakli jihatlarini ajrata olish. Ongli jarayonlarni keng yo'lga qo'yish,(idrok etish,yangi g'oyalar,mustaqil fikrlash, o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish). O'zini har tomonlama namoyon etish imkonini beradi. Media ta'limning yana bir afzalliklarini gapiradigan bo'lsam, ta'lim jarayonida pedagoglar vositalaridan foydalanib ijobjiy sifatlarga boy yoki tarbiya jarayoniga oid video lavhalar bilan boyitsa,o'sha jarayonda bola ko'rganlaridan xulosa chiqarib tarbiyasini o'zgarishiga olib kelishi ham mumkin. Ijobjiy munosabatlarni shakllantirish,go'zal xulq-atvorga ega bo'lgan shaxs bo'lib yetishishlarida katta yordam beradi. Dars jarayonida bo'lgan muhitga qiziqishib yolg'iz qolganlarida ham media vositalaridan foydalanib dars qilishlari yoki mustaqil dars jarayonini o'zlashtirishga qiziqishi uyg'onadi. Tangani ikki tomoni bo'lgani kabi bunda ham salbiy holatlar kuzatilinadi. O'quvchilar har xil ko'ngilchan ko'rsatuv, har xil o'zin dasturlari, saytlarga kirib o'qish chetda qolib ketish holatlari ham kuzatilinadi. Hozirgi kunda o'ylab qaraydigan bo'lsak yoshlar vaqtlarini befoyda sarflab ijtimoiy tarmoqlar,saviyasiz ko'rsatuv,shoulnarni televizor,kompyuter,mobil telefonlar va hokozolardan ko'rishadi.Lekin ma'naviy,ma'rifiy teledastur,aqlni charxlaydigan ko'rsatuvarlar,davlat,siyosat,jamiyatdan so'z ochadigan hech qanday narsalarni kuzatishmaydi ko'rishmaydi.Bu esa ma'naviyati past bo'lgan shaxslarni rivojlanishiga ko'payishiga olib keladi.Bunday vaziyatda ota onalar,o'qituvchilar bolani tarbiyasiga qattiqroq turishlari va doimiy nazarotda ushplashlari kerak.Shaxsiy rivojlanishini belgilab oldiga qo'ygan maqsadlariga yetishiga ko'maklashish zarur.Shu bilan birga mediata'limdag'i muammo va kamchiliklarni ko'rib chiqamiz.

1. Yoshlarni darsdan tashqari mashg'ulotlarda mediata'lim bilan shug'ullanishida ularni nazorat qilib turmaslik yoki nazoratda ushlamaslik
2. Ommaviy axborot vositalari va kompyuter tarmoqlari tomonidan taqdim qilinadigan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanmaslik
3. Mediata'limning tarbiyaviy salohiyatidan foydalanmaslik
4. Maqola,gazeta,jurnal yoki ommaviy axborot vositalaridan o'rgangan ma'lumotlarini muhokama qilmaslik,mustahkamlamaslik



5. Axborot texnologiyalari rivojlangan davrda internetdan unimli foydalanmaslik
6. Axborot tarqalyotgan vositalarni nazorat qilmaslik
7. Mediapedagogikaning takomillashmaganligi
8. O'qituvchilarimiz faoliyatida mediata'lidan foydalanmasligi

Mediata'lim jarayonida o'quvchilar darsni tez o'zlashtirishi,bilim salohiyatini yanada kengaytirib yodda qolarli bo'lishiga xizmat qilishi hech birimizga sir emas Mediasavodxonlik insonlarda media haqidagi tushunchani,ularni yaratih qo'llash haqidagi to'plamdir.Mediasavodxonlik – televideniya,video,audio,sensorli qlli doska va hokozolarda ko'rildigan axborotlarni tushunish mumkin.Shu bilan bir qatorda olgan ma'lumotlar haqida tanqidiy fikrlash qobilyatini ham paydo qiladi.Mediasavodxonlik birinchi bo'lib Kanada Shimoliy Amerikada mакtab o'quv darslarida joriy qilib qo'llashgan.Boshqa davlatlar mediata'limga mediasvodonlikka katta e'tibor qaratishadi.Masalan AQSH yosh bolalarga o'zin dasturini ishlab chiqqan.Va bolalar uni oddiy o'zin deb o'ynashadi lekin bu o'yinni o'ynagandan so'ng bolalarda media savodxonlik va reklamalarni tahlil qilish va yaratish qobilyatini oshiradi.Ularning tadqiqotlariga ko'ra (admongo) o'yinini muntazam o'ynab kelgan bolalar,bu o'yinni o'ynamaganlariga nisbatan mediasavodonligi 9% ga yaxshi natijani ko'rsatgan.Bu kichkina ko'rsatgich bo'lib ko'rinishi mumkin lekin Yoshi (8-12) bo'lgan bolalarni kelajakda zo'r yutuqlarga erishishi uchun imkoniyatlar va yo'llarni ochib beradi.

"Bugun zamon shiddat bilan o'zgarmoqda.Hayot barchamizdan dadil harakatlarni,faol tashabuslarni,hamma sohada haqqoniy va odil munosabatlarni talab etmoqda.Ko'pni ko'rgan sabr,toqatli,mehnatlash va oliyjanob xalqimiz amalga oshirayotgan ana shunday muhim o'zgarishlarning ntijasini kutmoqda" Shavkat Mirziyoyev.

Mediamadaniyat bu ommaviy axborot vositlari(avvalo televideniya,matbuot,radio,internet) ta'sirida shakllangan madaniyat.U insonning axborotga bo'lgan ehtiyojni ta'minlaydi,odamlarning qiziqishini boshqaradi,o'ziga mehrigiyodek jalb qiladi.Ta'sirchanlikning turli-tuman ko'rinishlarini,usullarini ishga solidi.Shu qatorda media madaniyatga ega bo'lish



ma'naviy qadryatlarni, axloqiy normalarni shakllantirib, insonparvarlik munosabatlarini takamillashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 29.12.1994 yildagi 629-son .Madaniyat va ilmiy axborotlarni ommalashtirish, O'zbekistonda ma'naviy aloqalarni kengaytirish to'g'risida gap boradi.Yoki "2022-2026 yildagi xalq ta'lmini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Prizedentining 11.05.2022 PF-134-sonli Farmonida,barcha o'quv jarayonida zamonaviy,yangi darsliklarni kiritish,multimedialardan foydalanib dars jarayonini tashkil etish.Ta'lim tarbiya jarayonini kuchaytirib,pedagog va ota onalarga mas'uliyatli bo'lishga jalb qilish.Elektron darsliklarni yaratish va har biri uchun electron resurs va multimedia mahsulotlarini yaratish asosiy vazifa qilib belgilangan.



Multimedia(ko'p vosalilik) zamonaviy dasturiy vositalarni qo'llab o'sha dasturiy ta'minot asosida video audio vositalarini boshqarish tushiniladi.Axborotni xilma-xil yetqazish turlari bu uning samarasini oshishi deganidir.Multimedia vositalari bilan ta'lim jarayonlarini bog'lashni boshqa davlat joriy qilib foydasi kattaligini ulardagi ta'limni samarasi yuqoriligidan bilsak bo'ladi.Ta'lim berish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanib va kadrlarni qayta tayyorlashni yo'lga qo'yish hozirgi kummimg dolzarb masalasidan bo'lib qolmoqda. "Multimedia"



hayotimizni ajralmas qismi bo'lib qoldi . Oddiygina misol qilib madaniy xordik olish uchun televizor,kinoteatrga borib kinolar,serial yoki mobil telefoningizda ko'ngilochar ko'rsatuv, shouular ko'rib dam olasiz,kayfiyat olasiz.

Mediata'larning afzallikkali:

- Berilgan materiallarni mukammal v chuqur o'rGANISH
- Ta'lim olishning zamonaviy yangi sohalarini yaxshi bilish va o'rGANISH
- Olingan bilim shaxs xotirasida uzoq muddat saqlanib qolish
- Dars jarayonida vaqtini tejash
- Audiokonferensiya, vidiokonferensiyalarini uyishtirish

Media ta'limni "T-sxemasi" bo'yicha yoritib berishga harakat qilaman.

### **Foydali**

### **Foydasiz**

Ta'lim sifatini yaxshilaydi	Talabalarni dangasa qilib qo'yadi tayyor narsalardan foydalanishga (youtube,google)
Dars soatini kamaytirib vaqtini tejaydi	Bo'lajak kadrlarni ko'plab bosh vaqtлari bo'lib undan unimli foydalana olmaslik
Talabalarni darsga bo'lgan qiziqishini orttiradi	Talabalarni chalg'itish holatlari ko'payishi mumkin
Ommaviy axborot vositalarini rivojlanishiga yaxshi yordam beradi	Ommaviy axborot vositalari ustidan nazorat kuchaytirilmasligi
Mustaqil izlanish,o'rGANISHGA gazeta,maqolalarni ko'p o'qish	Keraksiz ma'lumotlarga qiziqib,fanga bo'lgan qiziqishini kamayishi holatlari
Multimediali ta'limda yangi dastur, texnologiyalar yaratishga bo'lgan qiziqishini ortishi	An'anaviy ta'limni qoralash haqidagi fikrlarni paydo bo'lishi

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://multiurok.ru/files/zhamiat-manaviyatini-iuksaltirishda-mediamadanii.html>
2. <https://uforum.uz/showthread.php?t=2919>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/mediata-limni-mediamadaniyat-bilan-birgalikda-rivojlantirish-shartlari>
4. <https://lex.uz/docs/-889569>
5. lex.uz/ru/docs/-6008663